



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI

BUYRUQ

2025-yil 15-fevral

34-son

Transport nazorati inspeksiyasi tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-28-son qaroriga muvofiq,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qaroriga muvofiq Transport nazorati inspeksiyasining amaldagi shtat birlklari doirasida uning tashkiliy tuzilmasida Metodologiya bo'limi tashkil etish belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Transport nazorati inspeksiyasining tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport nazorati inspeksiyasi (J.Karimov), Moliya-iqtisod va tarif boshqarmasi (A.Ximmatov) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (U.Xaydarova) bilan birgalikda:

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tashkiliy tuzilmaga muvofiq shtatlar jadvaliga o'zgartirish kiritilishini;

shtatlar jadvaliga asosan xodimlar bilan mehnat qonunchiligi asosida tegishli hujjatlarning rasmiylashtirilishini;

mazkur buyruqdan kelib chiqib, tegishli hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlasin.

4. Transport vazirligining 2025-yil 17-yanvardagi 13-son buyrug'inining (4-bandi bundan mustasni) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (A. Raximov) mazkur buyruqni Transport nazorati inspeksiyasi va mas'ul ijrochilarga yetkazsin.


6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



I. Maxkamov

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi
TASHKILIY TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiyl soni — 348 nafar

shu jumladan:

markaziy apparat — 54 nafar

hududiy bo'limlar — 294 nafar